



13.00.00	13.00.06	01.00.00
13.00.01	13.00.07	02.00.00
13.00.02	13.00.08	03.00.00
13.00.03	13.00.09	09.00.00
13.00.04	07.00.00	10.00.00
13.00.05	19.00.00	11.00.00

№5/2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga  
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 148 sahifa,  
14-may, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich – Tarix fanlari doktori, professor

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vaziri

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich – Doctor of Historical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabihev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko'ra, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiysi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.06.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310



# MUNDARIJA

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida maqol va rivoyatlardan foydalanish texnologiyasi .....	12
Azimova Nodira Xikmatovna	
Matematikada o'tkaziladigan sinfdan tashqari viktorina, matematik ertalik va matematik musobaqalarini tashkil etish.....	15
Azizova Dilnoz Yo'idashevna	
Adabiy ta'lilda fanlararo integratsiyani rivojlantirishda didaktik o'yinlarning o'rni .....	19
Hasanova Bahora Isa qizi	
Boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi kognitiv-pragmatik mashqlar turlari va mazmuni.....	22
Jahonova Nargiza Yunus qizi	
Umumiy o'rta ta'lil maktablarida kimyo fanidan uyg vazifalarni tashkil etishda	28
QUIZ testlardan foydalanish .....	28
Jamolova Nodirabegim Jobir qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishning dolzarbligi .....	32
Mazgarova Durdona Shuxrat qizi, Mirzakamolova Komola Xojiakbar qizi	
Understanding and Using Articles in English: A Practical Approach.....	35
Mustafoyeva Nigina Shuhrat kizi	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida	40
raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari.....	40
Nosirova Dilfuza	
Ona tili va o'qish savodxonligi fanining boshlang'ich ta'limdagi o'rni va ahamiyati .....	45
Otamurodova Mahfirat Husan qizi	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lil sohasidagi qaror va qonunlari asosida	49
maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuv .....	49
Imamova Nilufar Zabiyxulla qizi, Po'latova Mahfuza To'iqin qizi	
Maktabgacha ta'lil tashkiloti rahbarlarining kasbiy etikasi va madaniy salohiyatini shakllantirish omillari....	52
Qodirova Fotima Rashidovna	
Boshlang'ich ta'lilda tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalarining qiyosiy tahlili....	55
Shokirova Madinabonu Shomurod qizi	
Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda mental arifmetikaning o'rni.....	59
Sulaymonova Nigora Olimjon qizi	
Boshlang'ich ta'lilma ta'lil samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalardan	63
foydalanish mexanizmlari (Singapur ta'lil tizimi misolida).....	63
Taniqulova O'g'iloy Fahriiddin qizi	
SWOT texnologiyasi asosida talabalarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish modeli.....	66
Abdusalomova Saidabonu Ziyovuddin qizi	
Механизмы формирования характера трудолюбия в младшем школьном возрасте .....	69
Зияев Амаль Толивович	
Современные методы обучения иностранному языку в начальных классах .....	72
Косимова Шахризода Бахромжон кизи, Рузметова Хилола Абдушариповна	
Ислам в духовных исканиях льва толстого: уважение великого писателя к религии и пророку .....	75
Мамасодикова Махзуна Жалол кизи	
Проблемы и особенности перевода с узбекского языка на русский:	
анализ ошибок и пути решения .....	78
Холмуродова Дилдора Хусниддиновна	
Развитие русского языка в современном мире .....	80
Чернова Татьяна Алексеевна, Темиров Руслан Расул угли, Хасанов Сайхунбек Килич угли	
Ona tili ta'lilda muqobil javobli testlardan foydalanishning afzalliklari.....	83
Komilova Lola Nasilloyevna	
Maxsus pedagogikani o'qitishda klinik, tarixiy, psixologik,	91
didaktik materiallarni integrativ o'qitish metodlari .....	91
Djavlanova Nodira Xamza qizi	



Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining loyihalash kompetentligini shakllantirish .....	94
<i>Xidirova Dildora Zayniddinovna</i>	
Formation of Cultural Tolerance in Preschool Children Through Foreign Language Learning Using Digital Educational Resources .....	98
<i>Dadakhanova Mohlaroyim Muratvayevna</i>	
Ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash va qo'llab-quvvatlashning samarali usullarini o'rganish .....	106
<i>Ataullayev Fazliddin Fahreddin o'g'li</i>	
O'quv jarayonida sun'iyl intellekt tizimlaridan foydalanishning ta'limiyl aspektlari tahlili .....	110
<i>Zubayda Barnoyeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlikni shakllantirishning nazariy va metodik manbalari.....	116
<i>Mirxalilova Nargiza Akbarovna, Usmanova Mashkura Mirzoroximovna, Xunarova Lobar Akbaraliyevna</i>	
Butun dunyoda nogiron bolalarga nisbatan munosabat: stereotiplar va ularni yengish .....	120
<i>Axmadova Shahloxon Voxid qizi</i>	
Ijtimoiy va pedagogik riabilitatsiyon deviant xulqi bo'lgan o'smirlar.....	124
<i>Abduvaliyeva Mashhura Abduvohid qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat munosabatlarini tartibga solishda sog'lom ish muhitini yaratish.....	127
<i>Qosimova Shaxnoza Nuriddinovna</i>	
Maktab o'quvchilarida chet tili bo'yicha strategik kompetensiyani shakllantirish: psixolingvistik asoslар .....	131
<i>Akmalxonova Nodira</i>	
Chet tillarini o'zlashtirishning psixolingvistik asoslari: A. A. Leontyev qarashlarining tahlili .....	137
<i>B. O. Toshboyeva</i>	
O'quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning xususiyatlari mazmuni .....	143
<i>Ro'zimatov Jamshid Alisher o'g'li</i>	

# МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА МЕХНАТ МУНОСАБАТЛАРИНИ ТАРТИБГА СОЛИШДА СОГ'ЛОМ ИШ МУХИТИНИ ЯРАТИШ

**Qosimova Shaxnoza Nuriddinovna**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va  
mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti  
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasini dotsenti P.f.f.d (PhD)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat munosabatlari tartibga solishda sog'lom ish muhitini yaratish to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, boshqaruv faoliyi, axloqiy-kasbiy kompetensiya, xalqaro talablarga moslashuv-chanalik, innovatsion yondashuvlar, strategik boshqaruv, HR-menejment, pedagogning maqomi, mehnat munosabatlari, jamoa shartnomasi, mehnat kodeksi, sog'lom ish muhiti, professional rivojlanish, psixologik muhit, tarbiyachilar va rahbarlar o'ttasidagi nizolar, zamonaviy ta'lim muhiti, shaxsliy va kasbiy kamolot.

**Abstract:** This article discusses the creation of a healthy working environment in the regulation of labor relations in preschool educational organizations.

**Key words:** preschool education, management activities, ethical and professional competence, adaptability to international requirements, innovative approaches, strategic management, HR management, status of a teacher, labor relations, collective agreement, labor code, healthy working environment, professional development, psychological environment, conflicts between educators and managers, modern educational environment, personal and professional development.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы создания здоровой производственной среды при регулировании трудовых отношений в дошкольных образовательных организациях.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, управленческая деятельность, этическая и профессиональная компетентность, адаптивность к международным требованиям, инновационные подходы, стратегическое управление, управление персоналом, статус педагога, трудовые отношения, коллективный договор, трудовой кодекс, здоровая рабочая среда, профессиональное развитие, психологическая среда, конфликты между педагогами и руководителями, современная образовательная среда, личностное и профессиональное развитие.

*Maqsadli kasbiy faoliyat inson hayotining  
asosidir. Inson ko'p vaqtini ishda o'tkazadi.  
Kimir buni o'zining zavqi uchun qiladi, boshqa-  
lari - o'zini va oilasini moddiy ta'minlash uchun.*

**Landon Roberts**

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishda, shiddat bilan o'zgarayotgan davr talablariga tayangan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatida ularning yuqori malakali boshqaruvchi sifatida axloqiy kasb kompetensiyasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. “Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, xalqaro talablarga javob beradigan yagona ko'p darajali uzuksiz ta'lim tizimini yaratish va maktabgacha ta'lim tizimida xodimlarning malakasini oshirish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish” talablari belgilab berilgan.

Shu ma'noda, “Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan



kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash<sup>1</sup>ni kabi vazifalarni xar bir rahbar o'z oldiga asosiy maqsad qilib belgilashi lozim.

Maktabgacha ta'lism sohasini jadal rivojlantirish ushbu soha rahbarlari zimmasiga zamon talablariga mos fikrlash, ta'lism tashkilotini innovatsion yondashuvlar asosida boshqarish, rejalashtirish hamda monitoring qilish kabi muhim vazifalarni yuklaydi. Maktabgacha ta'lism sohasi uzlusiz ta'lism tizimining birlamchi bo'g'ini sifatida ta'lism va tarbiyaning eng yuqori darajasini talab qiladi. Ta'lism tizimidagi rahbarlarning uzlusiz shaxsiy va kasbiy kamolotga erishishi hamda o'zgarib, rivojlanib borayotgan dunyoning talablariga moslashishining samarali shakllarini ishlab chiqish bugungi davrning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sон "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lism tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida "strategik boshqaruv, moliyaviy va HR-menejment asoslarini majburiy joriy etgan holda, maktabgacha ta'lism tizimida boshqaruv kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish<sup>2</sup> masalasi asosiy vazifalardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Mamlakatimizda mehnat munosabatlari, jamoadagi salbiy ijtimoiy holatlar va pedagogik nizolarni hal qilishga doir qator qonun hujjatlari qabul qilinmoqda. Jumladan "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonun Prezident tomonidan imzolandi. Bu bilan pedagoglarning huquqlari, majburiyatlar, faoliyatining asosiy kafolatlar, mehnatiga yarasha haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari Qonun bilan belgilandi. Mazkur Qonunda ta'lism tashkilotlarida nizolarni hal etish bilan pedagogning maqomi va uning kasbiy faoliyati bilan bog'liq nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etilishi belgilab qo'yildi<sup>3</sup>.

Prezident Administratsiyasi sho'ba mudiri Saida Mirziyoyeva "Afsuski, farzandlarimizga ta'lism berayotgan o'qituvchilar yillar davomida haq-huquqsiz, himoyasiz, qadrsiz bo'ldi. Ulardan bog'bon, farrosh, maktabga kelgan komissiyalarga xizmat ko'rsatuvchi ofitsiant, zerikarli tadbirdarda bo'sh zallarni to'ldiruvchi "massovka", matbuot nashrlariga majburiy obunachi, tungi navbatchi va maktab qorovuli sifatida foydalanildi", – deb ta'kidlaydi.

S.Mirziyoyevaning fikrlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, pedagoglarni turli ishlarga majburlash amaliyoti jamoada nizolarni keltirib chiqarishining sabablaridan biridir. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ta'lism tizimidagi islohotlarning natijasi o'laroq bir qancha normativ hujjatlar ishlab chiqilib, amalga joriy etilishiga qaramay, so'nggi yillarda pedagoglarni turli ishlarga majburlash amaliyoti davom etmoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lism tashkilotlarida mehnat munosabatlarining buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'lism tizimida mehnat munosabatlarining ahamiyati, bu sohada samarali va sog'igom ish muhitini yaratishga xizmat qiladigan eng asosiy omillardan biridir. Mehnat munosabatlarining ahamiyatini yorituvchi asosiy jihatlaridan biri sifatlari ta'lismi ta'minlash desak, maktabgacha ta'limgagi faoliyatni sifatini ta'minlovchi jihatlarning asosini xodimlar o'tasida mehnat munosabatlari va jamoada samarali hamkorlikni tushunish zarur.

Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida muhitining ijobiliyги pedagoglarga motivatsiya beradi va ularni profesional rivojlanishga undaydi. Mehnat munosabatlari ishonch va hurmatga asoslangan bo'lsa, xodimlar o'z ishlariga chuqur mas'uliyat bilan yondashadilar. Mehnat munosabatlari boshqaruvning asosiy elementi sifatida pedagoglar va direktorlar o'tasidagi munosabatlarni boshqarish, tashkilot ichida ijobiyl psixologik muhitni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Mazkur o'quv qo'llanma mehnat munosabatlarini tartibga solishda, xodimlarning huquq va majburiyatlarini belgilash hamda ularning huquqini himoya qilish va sog'igom ish muhitini yaratishga yordam beradi. Shu ma'noda, maktabgacha ta'lism tashkilotlarida mehnat munosabatlarini samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni taqqid etish, mehnat munosabatlarini samarali boshqarish orqali maktabgacha ta'lism tizimida ijobiyl ish muhitini yaratish, pedagogar va xodimlarning professionallik darajasini oshirish maqsadida yozildi.

Mehnat munosabatlari tushunchasiga to'xtalar ekanmiz avvalo, inson hayotidagi kasbiy faoliyatning ahamiyatini yaxshi tushunib olishimiz maqsadga muvofiq deb bildik. Maqsadli kasbiy faoliyat insonning shaxsiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida asosiy rol o'ynab quyida jihatlari o'z ichiga oladi.

Insonlar kasbiy faoliyatini o'z qoniqishlari va zavqlari uchun amalga oshirishadi va bu, o'z navbatida, mehnatga bo'lgan muhabbat va ishtiyoqni oshiradi, shuningdek, faoliyat jarayonidagi ijodkorlikni rag'batlantiradi. O'z ishini yaxshi ko'rghan odamlar ko'pincha yuqori samaradorlik ko'rsatish asnosida ishlarida muvaffaqiyatga erishishadi. Boshqalar uchun, ish hayotidagi eng muhim ishtiyoq moddiy ta'minotdir. Ish orqali olingan

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 29.10.2020 yil 29 oktabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/5073447>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lism tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/4327235>

3 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.02.2024 yil 1 fevraldag'i O'RQ-901-son "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs>

daromad, insonning hayot sifatini oshirish va oilasini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. O'z oilasini yaxshi sharoitlarda boqish, ta'lim berish va iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lish har bir inson uchun asosiy burchdir. Kasbiy faoliyat ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ish joyida odamlar bir-biri bilan muloqot qiladi, jamoalar orasida hamkorlik o'rnatadi va yangi do'stlik aloqalarini shakllantiradi. Bular barchasi insonning psixologik salomatligi va ijtimoiy hayotida ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat orqali inson o'z mahoratlarini oshiradi, yangi ko'nikmalarni o'rganadi va shaxsiy rivojlanish uchun imkoniyatlarni yaratadi. Har bir kasbiy faoliyat o'z ichiga yangi bilim va tajribani oladi, bu insonni yanada malakali va tajribali bo'lishiga zamin yaratadi. Kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish, ko'pincha shaxsning hayotida ijobji o'zgarishlarga olib keladi. Bu o'z o'rnda, depressiyani kamaytiradi, o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi va hayotga bo'lgan ijobji qarashni kuchaytiradi. Kasbiy faoliyat inson hayotidagi muhim jihat bo'lib, uni o'ziga xos tarzda qo'llab-quvvatlaydi. Ijodkorlik, moddiy ta'minot, professional rivojlanish va ijtimoiy aloqalar, hammasi insonning to'liq va mazmunli hayot kechirishida muhim rol o'ynaydi.

Mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda, shuningdek ayrim fuqarolar ixtiyorlari mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan jismoniy shaxslarning mehnatga oid munosabatlari mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi. Mehnat to'g'risidagi Kodeks, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari va Jo'qorg'i Kengesi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Hukumatining qarorlari, davlat hokimiyatining boshqa vakillik va ijroiya organlari o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlardan iboratdir.

Mehnat huquqining asosiy manbasi bo'lmish O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 37- moddasida mehnatni huquqiy tartibga solishning eng asosiy printsiplari "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar", "Davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlardan qonun bilan belgilanadi"<sup>4</sup> deya belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida mehnatga oid munosabatlari mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari, jamoa keli-shuvlari, shuningdek jamoa shartnomalari va boshqa lokal normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

**Mehnat** – bu inson faoliyatining yo'nalishi bo'lib, uning belgilari maqsadga muvofiqlik va yaratilishdir<sup>5</sup>.

**Mehnat munosabatlari** – bu ish beruvchi (tashkilot, muassasa) va xodim (pedagog, tarbiyachi yoki boshqa xodimlar) o'rtaidagi huquqiy, ma'naviy va iqtisodiy munosabatlardir. Ular mehnat faoliyatini olib borish, xodimlarning huquq va majburiyatlarini belgilash, ish shartlarini tashkil etish va mehnat sharoitlarini yaratishga qaratilgan. Mehnat munosabatlari ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar doirasida rivojlanadi va mehnat qonunchiligi, norma va qoidalar asosida tartibga solinadi.

**Mehnat munosabatlari** – bu bir tomonidan ish beruvchilar boshqa tomonidan ishga yollanuvchilar hamda davlat va kasaba uyushmalari o'rtaida ishchi kuchini yollash yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatdir.

**Mehnat kodeksi** – "ish beruvchilar va davlat manfaatlarining muvozanatini ta'minlash hamda ularni muvofiqlashtirish asosida yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi"<sup>6</sup> asosiy qonun hujjatidir.

**Jamoa shartnomasi** – korxonada ish beruvchi bilan xodimlar o'rtaidagi mehnatga oid, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatdir.

**Jamoa kelishuvi** – muayyan kasb, tarmoq, hudud xodimlari uchun mehnat shartlari, ish bilan ta'minlash va ijtimoiy kafolatlar belgilash borasidagi majburiyatlarni o'z ichiga oluvchi normativ hujjatdir.

Jamoa shartnomalari va kelishuvlari xodimlar bilan ish beruvchilarning mehnatga oid munosabatlarini shartnomalari asosida tartibga solishga va ularning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirishga yordam berish maqsadida tuziladi.

**Mehnat shartnomasi** – xodim bilan ish beruvchi o'rtaida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishlashi ichki mehnat tartibiga bo'yungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir. Xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflari bo'lib hisoblanadilar. Mehnat shartnomasini tuzish haqidagi kelishuvdan oldin qo'shimcha holatlar (tanlovdan o'tish, lavozimga saylanish va boshqalar) bo'lishi mumkin.

4 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

5 Mehnatning turlari va xususiyatlari-Ta'lim2024. <https://uz.modern-info.com/13645552-varieties-and-characteristics-of-labor#menu-1>

6 O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi

**Mehnat huquqi** – mehnat shartnomasi asosida vujudga keladigan hamda xodimlar va ish beruvchilar o'rtaсидаги муносабатларни, шuningdek, mehnatдан foydalanish sohasi bilan bog'liq boshqa munosabatlarni tartibga soladigan keng qamrovli va murakkabhuquq sohasidir.

Barcha fuqarolar mehnat huquqlariga ega bo'lish va ulardan foydalanishda teng imkoniyatlarga egadir. Jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqeい, denga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik qobiliyatlariga va ular mehnatining natijalariga aloqador bo'limgan boshqa jihatlariga qarab mehnatga oid munosabatlar sohasida har qanday cheklashlarga yoki imtiyozlar belgilashga yo'l qo'yilmaydi va bular kansitish deb hisoblanadi.

Mehnat sohasida o'zini kansitilgan deb hisoblagan shaxs kansitishni bartaraf etish hamda o'ziga yetka-zilgan moddiy va ma'nnaviy zararni to'lash to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

Jamiyatimizda maktabgacha ta'lif tashkilotlari boshqaruvidagi mehnat munosabatlarining buzilishi, tarbiyachilar tomonidan lavozim vazifalarini to'liq bajarmaslik va direktor tomonidan qo'llaniladigan ta'sir choralariga noto'g'ri munosabatda bo'lish rahbar va xodimlar o'rtaсиda amalдagi huquq normalariga turlicha yondashish hamda o'z huquqlarini va majburiyatlarini bilmaslikdir.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarda ta'lif tarbiyaning eng muhim omili bolaning shaxs sifatida rivojlanishi desak, uni o'rab turgan pedagogik shart-sharoitlarning eng muhim tamoyili bu kattalar o'rtaсидаги муносабатларидир. Ushbu munosabatlarni tartibga solishda xar bir rahbardan mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi asoslarni bilish talab etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi
3. Mehnatning turlari va xususiyatlari-Ta'lif2024.

- 13.00.00** Pedagogika fanlari
- 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03** Maxsus pedagogika
- 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07** Ta'limda menejment
- 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00** Tarix fanlari
- 19.00.00** Psixologiya fanlari
- 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00** Kimyo fanlari
- 03.00.00** Biologiya fanlari
- 09.00.00** Falsafa fanlari
- 10.00.00** Filologiya fanlari
- 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.